

## **JUN TOLASIDAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH KORXONLARINING OLDIDA TURGAN ASOSIY VAZIFALAR**

**Isxaqova Ra'noxon Abdullajanovna**

*<sup>1</sup>Namangan Institute of engineering and technology Uzbekistan*

[isxaqova@mail.ru](mailto:isxaqova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada respublikamizdagi mayjud mahalliy jun tolalarini taxlil qilinib, viloyatlar bo'yicha atroficha o'r ganilgan va jun tolavi tarkiblari, olinish usullari, turlari va xususiyatlari yoritib berilgan.


**Tayanch so'zlar:** tola, mayin jun, dag'al jun, noto'qma, qorako'l terilari, tangachali qatlam, qobiq qatlam, o'zak qatlam, charm, mo'yna.

Bozor munosabatlarining yangi sharoitida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich, davr talabiga qarab amalga oshirish, korxonalarni boshqarish tizimini bozor iqtisodiyotiga moslashtirish, chet el investitsiyalarini ko'proq jalb etish, mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish, korxonalarda servis xizmatini takomillashtirish, xom ashyo o'rniga tayyor mahsulotlarni sotish uchun tadbirlar ishlab chiqish, aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz rivojlanishi uchun bugungi kunda xar birimiz oldimizga bir qator vazifalar qo'yishimiz kerak. U ham bo'lsa, barcha turdag'i korxonalarni tubdan yangilash, zamonaviy texnik va texnologiyalar bilan qayta jihozlash, o'zimizda yetishtirilayotgan tabiiy xom ashyolardan chiqindini kamaytirgan xolda samarali foydalanib, istemolchi talabiga javob bera oladigan hamda jahon bozorlarida raqobatlasha oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishdir. Respublikamizda ko'p miqdorda paxta yetishtiriladi. Xomashyo sifatida uni sotish yoki qayta ishlash borasida texnologik jarayonlar yo'lga qo'yilib, axoliga sifatli hamda qulay mahsulotlar yetkazish yuqori o'rnlarda turadi. Eqtisodiyotimiz rivojlantirishda chorvachilik mahsulotlari ham o'z o'rniga ega. Bu borada go'sht-sut va sut mahsulotlari, hamda hayvon terilarini qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda qo'y va echkilarning umumiy soni 10 mln ga yaqin, buning asosiy qismi qorako'l qo'ylardir. Qorako'l qo'yulari (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan tashqari) barcha viloyatlarda boqiladi. Ulardan asosan qorako'l, qorako'lcha va qo'y terilari, jun hamda go'sht olinadi. Echkilar respublikaning deyarli barcha viloyatlarida asosan mayin tivit va jun uchun boqiladi. Qoramol ham barcha viloyatlarda boqiladi. Qoramollar go'sht va sut mahsulotlarini olish maqsadida boqiladi. Mamlakatimizda qoramollarning jami soni 9,6 mln boshdan ortiq. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, respublika miqyosida hayvon junlarini qayta ishlash hamda ulardan foydalanish jarayonlari asosan Qorako'lchilik bilan shug'llanuvchilar, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarida yo'lga qo'yilgan bo'lib, iste'molchilarga ustki kiyimlardan tortib gilam, paypoq, adyol, poyabzal qismlari, bosh kiyimlar tayyorlanadi. Respublikamizdagi mavjud maxalliy duragay zotli hayvon junlaridan foydalanish ko'lamini oshirish maqsadida mavjut korxonalarda jundan ishlab chiqarilgan koplab assortiment turlari mavjut. Ular bugungi kunda ko'plab iste'molchilarimiz talab va istaklarini yetarli darajada qodrishga qodir.



1- rasm. Ju

So'nggi yillarda noto'qima mahsulotlar assortimenti sezilarli darajada kengaydi. Noto'qima mahsulotlarini ishlab chiqarishda avvalo jun tolasining qanchalik ingichkaligiga, mayinligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Bugungi kundagi asosiy muammolardan biri ham shu xisoblanadi. Dag'al jundan noto'qima mahsulotlarni ishlab chiqarishda, mahsulotning sifatini oshirish va mahsulot o'zini tashlab turishi uchun sun'iy tolalardan va yupqa matolardan foydalaniladi. Masalan to'rli matolar, shoyi, shifon va boshqalardan.




2-rasm Namangan viloyatininig tumanlarida jun maxsulotini ishlab chiqarish miqdori.

Berilgan 2-rasmga ko'ra jun tolalarini ishlab chiqarish bo'yicha Namangan shaharda 147 268 dona, Shust tumanida 118 213 dona, Pop tumanida 113 849 dona, Yangiqo'rg'on tumanida 66 052 dona, To'raqo'rg'on tumanida 56 411 dona, Kosonsoy tumanida 54 530 dona, Chortoqda 48 184 dona, Uchqo'rg'onda 36 511 dona, Norinda 36 291dona, Uychi tumanida 35 781 dona, Namangan tumanida 28 844 dona, Mingbuloqda 18 151 dona qo'y-echkilar mavjud [4].


Respublikamizning janubiy hududlarida echki junini qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Echki juni o'z xaridoriga hamda mavjud qo'llanish sohasi ega. Agarda bitta qo'y-echkidan bir marta tola olishda 1,8 kg jun tolesi olinsa, Namangan viloyatida esa 13,68 tonna jun tolalari olinadi. Agarda bir yilda jun qirqish jarayoni ikki marta olinsa o'rtacha 27,36 tonna jun tolesi olinadi. Ushbu ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki jun tolalarini navlarga ajratish, saralash va qayta ishlash natijasida to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish 1-2 barobarga ortadi. Bu esa jun maxsulotlaridan tabiiy hususiyatli zamonaviy moda yo'nalishidagi tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda qo'llanilish mumkin. Farg'ona vodiysining viloyatlarida yani Andijonda 815000 dona, Farg'ona viloyatida 718000 Namangan viloyatida 760125 donani tashkil etadi

### Farg'ona vodiysi



3-rasm Farg'ona vodiysining viloyatlardagi qo'y-echkilar soni.

Keyingi paytlarda tikuv buyumlari tayyorlashda charm-mo'yna gazlamalaridan tashqari iste'molchilarining to'qimachilik buyumlariga bo'lgan talabi ham sezilarli darajada rivojlandi. Yengil sanoatni rivojlantirish borasida ustki kiyimlarini tayyorlash texnologiyasi hamda loyihalash jarayonlarida gazlamalarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi bir necha yil ichida ustki kiyimlarida charm-mo'yna gazlamalarini qo'llash urfga kirdi. Ustki kiyimlarda qo'llanilayotgan charm-mo'yna gazlamalarining aksariyati gigiyenik xususiyati past sintetik tolalardan iborat, bu tolalar iste'molchi sog'ligigiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tikuv buyumlarining eksplutatsion davrida kiyim tashqi ko'rinishi buzilishi (tuklarning pillinglanishi) mumkin. Eshlab chiqarish korxonalari hamda savdo markazlarida ayollar ustki kiyimlarida qo'llanilayotgan gazlamalarni marketing tahlili o'tkazildi va quyidagi histogrammada belgilandi (4-rasm).



4-rasm. Ustki kiyimi uchun qo'llanilayotgan gazlamalar

Namangan viloyatidagi "Kosonsoy-to'qimachi" MChJ korxonasida mahalliy jun mahsulotlaridan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ortib bormoqda, lekin jun tolalarini qayta ishlash bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ilmiy tadqiqot ishida Namangan viloyatining tumanlarida va Farg'ona vodiysidagi viloyatlarda mahalliy jun mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talablar atroficha tahlil qilindi.

Jahonda junni dastlabki ishlash texnika va texnologiyalarini dag'al va mayin junlarning fizik-mekanik xususiyatlarini inobatga olgan ilmiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda junni qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, junni tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va ju xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda respublikamizdagi mavjud mahalliy jun tolalarini viloyatlar bo'yicha atroficha o'rganildi va taxlil qilindi. Jun tolaviy tarkiblari, olinish usullari, turlari va xususiyatlari yoritib berildi. O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati alohida ahamiyatga ega. Shu sababli ham respublikamizda mahalliy jun tolalaridan noto'qima gazlamalarini tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, kengaytirish va ularni ishlab chiqarish korxonalariga tadbiq qilish, ishlab chiqarilayotgan mahalliy jun maxsulotlaridan turli hil buyumlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy jihozlardan foydalangan holda maxalliy jun maxsulotlaridan ustki kiyimlar ishlab chiqish va ishlab chiqarish korxonalariga tadbiq qilish muhim rivojlantirish omili ekanligini ko'rsatdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y 19 mart
2. Mirzohid JO'RAYEV Junni qayta ishlashda klaster usullari. Eqitisodiyot 04.10.2019.
3. SH.Mirziyoyev O'zbekistonning 2016-yildagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari. Vazirlar Mahkamasi kengaytirilgan yig'ilishi. 2017 yil 14 yanvar
4. www.pv.uz.
5. Namangan viloyati Namangan shahar statistika bo'limi ma'lumoti
6. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y 19 mart
7. http://www/statistika.com.
8. Patent N2356 Junni begona aralashmadan tozalash usuli. Xojimatov R.S. va boshqalar.
9. Bisnigaliyeva Ziyada Xalmyarovna. "ИССЛЕДОВАНИЕ ФАКТОРОВ И РАЗРАБОТКА МЕТОДА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПОЖЕЛТЕНИЯ ШЕРСТИ ПРИ ХРАНЕНИИ"
10. Kremer Egor Edgarovich " ФОРМИРОВАНИЕ ТОВАРНЫХ СВОЙСТВ ШЕРСТИ ТОНКОРУННЫХ ОВЕЦ С РАЗЛИЧНОЙ ПЛОТНОСТЬЮ РУНА".
11. Rahimov F.X. Sock knitting technology, -T.: "Sharq", 2007. 24- 60 pages.